

CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

*2022- yil yanvar-iyul holatiga ko'ra
dastlabki ma'lumot*






CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Farg'ona viloyat bo'yicha 2022- yilning yanvar-iyul oylarida chakana savdo tovar aylanmasi

12 819,2 mlrd. so'mni tashkil etib, 2021 - yilning mos davriga nisbatan **108,6 %** ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi

1 548,6 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **151,4 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **11 270,6** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **104,5 %**), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **889,0** mlrd. so'm (o'sish sur'ati **100,8 %**)ni tashkil etdi.


Asosiy tarkib, foizda



Jami
Uyushmagan savdo
889,0



Tarkibiy qism, foizda



Uyushmagan savdo, mlrd. so'm

Dehqon bozori

457,9
51,5 %

Chorva bozori

431,1
48,5 %



HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm

ENG YUQORI ULUSH

Qo'qon sh.
2 677,9

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Qo'qon shahri **20,9 %** bilan 2 677,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Farg'ona sh.
2 602,7

Marg'ilon sh.
2 288,0

Uchko'prik
747,9

Quva
519,3

Oltiariq
390,5

Buvayda
384,0

Rishton
371,1

Qo'shtepa
345,0

Bog'dod
341,1

Beshariq
314,7

Farg'ona
310,6

O'zbekiston
289,7

Toshloq
281,9

Dang'ara
261,7

Furqat
192,7

Quvasoy
180,3

Yozyovon
162,4

So'x
157,9

UMUMIY MA'LUMOT

2022- yilning yanvar-iyul oyida chakana savdo tovar aylanmasi **12 819,2 mlrd. so'mni** tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan **108,6 %ni** tashkil etdi.



ENG QUYI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni So'x tumani **1,2 %** bilan 157,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.



CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Eng yuqori ulushga ega hududlar, % da

1 **Uchko'prik**
39,3

2 **Farg'ona sh.**
26,4

3 **Qo'qon sh.**
14,1

Yirik korxonalar

1 **So'x**
98,8

2 **Qo'shtepa**
98,7

3 **Marg'ilon sh.**
98,6

**Kichik biznes
va xususiy tadbirkorlik**

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **51,4 %** ga o'sdi va **1 548,6** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **12,1 %** ulushiga to'g'ri keldi.

Eng past ulushga ega hududlar, % da

1 **So'x**
1,2

2 **Qo'shtepa**
1,3

3 **Marg'ilon sh.**
1,4

Yirik korxonalar

1 **Uchko'prik**
60,7

2 **Farg'ona sh.**
73,6

3 **Qo'qon sh.**
85,9


**Kichik biznes
va xususiy tadbirkorlik**

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **11 270,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **4,5 %**ga ko'paydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **87,9 %**ni tashkil etdi.



CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, foizda

Tahliliy natijalarga ko‘ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo‘yicha So‘x tumani (**98,8 %**) va Qo‘shtepa (**98,7 %**) tumanlarida yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi **12,1 %**ni tashkil etib, eng katta ulush Uchko‘prik t (**39,3 %**) Farg‘ona (**26,4 %**) va Qo‘qon (**14,1 %**) shaharlarida kuzatildi.






UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda

Asosiy tarkib, foizda



Savdo hajmi va ulushi

100 %
JAMI

889,0
mlrd. so'm

51,5 %
Dehqon bozori

457,9
mlrd. so'm

48,5 %
Chorva bozori

431,1
mlrd. so'm

51,5

*Dehqon
bozorlari*

48,5

*Chorva
bozorlari*

Viloyat bo'yicha 2022- yil yanvar-iyul oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **889,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **0,8 %ga** oshdi. Shu jumladan, 1 bozor va 1 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'llanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **457,9** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **2,9 %**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **431,1** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **98,7 %**) tashkil etdi.




UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI

2022- yilning yanvar-iyul oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **457,9** mld. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**271,2** mld. so'm) to'g'ri keldi.





UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd. so'm




2022- yilning yanvar-iyul oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **431,1** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi **343,3** mlrd. so'mni, qo'y va echkilar **79,2** mlrd. so'mni, otlar **5,8** mlrd. so'mni, parrandalar **2,8** mlrd. so'mni tashkil etdi.




ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ulgurji savdo tovar aylanmasi, foizda



Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Viloyat bo'yicha 2022-yilning yanvar-iyul oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **6 050,1 mlrd. so'mni** tashkil etib, 2021-yilning mos davriga nisbatan **8,7 %** ga o'sdi. Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **5 780,9 mlrd. so'mni** tashkil qilgan, bu esa 2021-yilning mos davriga nisbatan **12,3 %** ga oshgan. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdodagi ulushi **95,6 %** ni tashkil qilgan.



Eng yuqori ulushga ega hududlar, % da

